

**O‘ZBEKISTONDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR SHAROITIDA AXBOROT OLISH
HUQUQINI TA’MINLASH: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR**

Abduraximov Shoxrux Shuxratjon o‘g‘li

*Toshkent davlat yuridik universiteti magistraturasi 08-Biznes huquqi yo‘nalishi
magistri*

e-mail: sh.sh.abduraximov@gmail.com

tel: +998 90 175 87 86

Annotatsiya: Inson huquqlari tabiiy, shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa guruhlariga ajratilgan. Axborot olish huquqi esa tabiiy huquqlar guruhiga kiritilishi lozim. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 29-moddasi “har kim o‘zi istagan axborotni izlash, olish va uni tarqatish” huquqini kafolatlaydi, 30-moddasida esa fuqarolar barcha davlat organlari, jamoat birlashmalari va mansabdor shaxslaridan o‘zlarining huquq va manfaatlariga daxldor bo‘lgan hujjatlar, qarorlar va boshqa materiallarni so‘rab olishi mumkinligi belgilangan. Ushbu maqolada, anashu Konstitutsiyamizning 30-moddasida belgilangan axborot olishi huquqini ta‘minlashda hozirda yo‘l qo‘yilayotgan kamchiliklar, qonunchilikdagi bo‘shliqlar, yaxshi ishlayotgan mexanizm bilan bog‘liq muammolar hamda ularga xorijiy tajribadan kelib chiqib birqancha yechimlarni taklif qilamiz.

Kalit so‘zlar: axborot olish huquqi, mexanizm, FOI (Freedom Of Information), zamonaviy texnologiyalar

**ОБЕСПЕЧЕНИЕ ПРАВА НА ИНФОРМАЦИЮ В УСЛОВИЯХ
ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В УЗБЕКИСТАНЕ: ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ**

Аннотация

Права человека делятся на естественные, личные, политические, экономические, социальные и другие группы. Право на получение информации должно быть включено в группу естественных прав. Статья 29 Конституции Республики Узбекистан гарантирует право «каждого искать, получать и распространять желаемую им информацию». Статья 30 гласит, что граждане могут запрашивать документы, решения и другие материалы, касающиеся их прав и интересов, у всех государственных органов, общественных объединений и должностных лиц. В данной статье мы приводим недостатки, пробелы в законодательстве, проблемы, связанные со сбоями в работе механизма обеспечения права на информацию, предусмотренного статьей 30 нашей Конституции, и предлагаем некоторые решения, основанные на зарубежном опыте.

Ключевые слова: право на информацию, механизм, свобода информации, современные технологии.

ENSURING THE RIGHT TO INFORMATION IN THE CONTEXT OF DIGITAL TECHNOLOGIES IN UZBEKISTAN: PROBLEMS AND SOLUTIONS

Annotation: Human rights are divided into natural, personal, political, economic, social and other groups. The right to receive information should be included in the group of natural rights. Article 29 of the Constitution of the Republic of Uzbekistan guarantees the right of "everyone to seek, receive and distribute the information he wants." Article 30 states that citizens can request documents, decisions and other materials related to their rights and interests from all state bodies, public associations and officials. In this article, we present the shortcomings, loopholes in the legislation, problems related to the malfunctioning mechanism in ensuring the right to information provided for in Article 30 of our Constitution, and offer some solutions based on foreign experience.

Key words: right to information, mechanism, FOI (Freedom Of Information), modern technologies

Dunyodagi har bir davlatda fuqarolarning erkin axborot olish huquqlarini tartibga solishga qaratilgan muayyan qonunchilik hujjatlari tizimi shakllangan. Bu qonunchilik asosini, albatta, Konstitutsiyalar tashkil etadi. Deyarli barcha mamlakatlarda milliy Konstitutsiyalarda inson va fuqarolarning huquqlari va erkinliklari uchun maxsus bo'lim hamda boblar ajratilgan bo'lib, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklari joriy qonunlarda o'z aksini topgan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarida ham fuqarolarning axborot olish huquqi kafolatlangan. Axborot olish, uni qayta ishlash, undan foydalanish va uni tarqatish bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan qonun va qonunosti normativ hujjatlar ayni shu qonunchilik tizimini tashkil etadi. Ayni shu qonunchilik tizimi asosida yaratilgan mexanizm fuqarolarning axborotga bo'lgan huquqlari, O'zbekiston Respublikasining barcha davlat organlari, jamoat birlashmalari va mansabdor shaxslaridan o'zlarining huquq va manfaatlariga daxldor bo'lgan hujjatlar, qarorlar va boshqa materiallardan iborat axborot bilan tanishib chiqish, ularni olish, saqlash va tartqatishdan iborat huquqlarini hech qanday muammo va to'siqlarsiz amalga oshirishini ta'minlashi kerak. Hozirgi kunda texnologiyalarning jadal suratda rivojlanishi natijasida axborot oqimining hajmi va uning tarqatuvchilari soni ortib borishi, bundan tashqari, hukumatning ham raqamli hukumatga aylantirilishi natijasida fuqarolarning o'z manfaatlariga daxldor bo'lgan ma'lumotlarni olishini hamda ularning ishonchli axborotga bo'lgan huquqlarini cheklamoqda. Elektron hukumatning vujudga kelishi bilan fuqarolarning shaxsiy ma'lumotlari hamda boshqa axborotlardan foydalanish birmuncha qulay bo'lgan bo'lsa, umumjamoat manfaatlariga daxldor bo'lgan boshqa axborotlarni olish hamda ulardan foydalanish muammoligicha qolmoqda. Buning sabablari, bir tomondan, qonunchilikdagi bo'shliqlar bo'lsa, ikkinchi

tomondan, axborot olish mexanizmining zamonaviy texnologiyalar sharoitiga to‘g‘ri kelmasligidir.

Hozirgi kunda fuqarolarning axborot olish bilan bog‘liq huquqlari to‘laligicha zamonaviy elektron tizimga o‘tkazilmagani bir qator muammolarni va qiyinchiliklarni keltirib chiqarmoqda. Bu kamchiliklar, ayniqsa, COVID-19 pandemiyasi davrida yaqqol sezildi. Fuqarolar o‘zlariga kerakli bo‘lgan ma‘lumotlarni masofadan turib ola olmaganligi tufayli ayrim sohalarida juda katta muammolar vujudga keldi. Xususan, pandemiya davrida ishsizlik avj olgan paytlarda ishsiz sifatida ro‘yxatdan o‘tish, ijtimoiy yordam olish masalalarida masofadan turib axborot olishning imkoni yo‘qligi aholining katta qismida hukumatga nisbatan norozilik kayfiyatini shakllantirdi. Bundan tashqari, pandemiya asoratlariga qarshi kurashish, ijtimoiy yordamga muhtoj aholini iste‘mol tovarlari bilan ta‘minlash, qo‘shimcha kasalxona va izolatsiya uchun maxsus xonalarni qayta konstruksiyalash, eng so‘nggi preparatlar, kerakli tibbiy jihozlar bilan kasalxonalarni jihozlash uchun yillar davomida xalqimizning tinimsiz va og‘ir mehnatlari bilan jamg‘arilgan davlat budjeti mablag‘lari, ijtimoiy fondlar va jamg‘armalar mablag‘larini maqsadli sarflanishi haqidagi axborotning ochiqqlanmaganligi ham keyinroq juda katta ommaviy noroziliklarga sabab bo‘ldi.

Bizning yurtimizda shu davrgacha qabul qilingan ikkita axborot olish huquqini kafolatlovchi asosiy qonun mavjud. Bulardan birinchisi O‘zbekiston Respublikasining “Axborot olish kafolatlari va erkinliklari to‘g‘risida”gi 1997-yil 24-apreldagi Qonuni bo‘lib, unda fuqarolarning Konstitutsiyamizning 29-moddasida belgilangan “har kim o‘zi istagan axborotni izlash, olish va uni tarqatish”¹⁹ huquqini kafolatlaydi va uni amalga oshirish mexnizmini qisman belgilaydi. Ikkinchi qonun esa O‘zbekiston Respublikasining “Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni bo‘lib, unda Konstitutsiyamizning 30-moddasida “O‘zbekiston Respublikasining barcha davlat organlari, jamoat birlashmalari va mansabdor shaxslari fuqarolarga ularning huquq va manfaatlariga daxldor bo‘lgan hujjatlar, qarorlar va boshqa materiallar bilan tanishib chiqish imkoniyatini yaratib berishi lozim”²⁰ deb belgilangan fuqarolarning davlat organlari va tashkilotlaridan axborotni so‘rab olish huquqi bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan.

Konstitutsiyamizning 30-moddasida belgilangan fuqarolarning davlat organlari, idoralari, jamoat birlashma va tashkilotlaridan o‘zlarining manfaatlariga daxldor axborotni olish huquqini hozirgi texnologiyalar asrida ta‘minlashning ham bir qancha usul va vositalari mavjud. Avvalo, ushbu huquqni mustahkamlagan O‘zbekiston Respublikasining “Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuniga binoan fuqarolar o‘z manfaatlariga daxldor bo‘lgan axborotni davlat idora va tashkilotlaridan, vazirlik, qo‘mitalardan, ma‘muriy organlari, jamoat birlashmalari,

¹⁹ O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 09.02.2021-y., 03/21/671/0093-son. URL: <https://lex.uz/docs/-20596>

²⁰ O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 09.02.2021-y., 03/21/671/0093-son. URL: <https://lex.uz/docs/-20596>

korxonalar, muassasalar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va mansabdor shaxslardan so'rab olish huquqiga ega, so'ralayotgan axborot qonun bilan tarqatilishi cheklanmagan yoki taqiqlanmagan bo'lishi lozim. Ushbu qonundagi asosiy kamchilik so'rovga javob berish muddatida, ya'ni qonunning 6-moddasiga ko'ra, so'rov kelib tushgach, o'n besh kunlik muddatda javob qaytarish lozim. Lekin hozirgi texnologiyalar sharoitida bu muddat juda ham ko'p hisoblanadi. Bu norma fuqarolarning axborot olishga bo'lgan huquqlarini sun'iy ravishda cheklashi mumkin. Norma ijodkori bu qonunni ishlab chiqishda o'z manfaatlaridan kelib chiqib yondoshgani seziladi. Xususan, ushbu moddaning davomida, agar so'ralgan axborot ushbu tashkilotda bo'lmasa, yetti kunlik muddatda bu haqida so'rovchini ogohlantirishi lozim. Bu muddat ham hozirgi texnologiyalar sharoitida ko'p hisoblanadi.

Axborotlarni raqamli ko'rinishga o'tkazib, undan foydalanishni osonlashtirish jarayonida barcha axborot shartli ravishda uch guruhga ajratilishi lozim. Uning birinchi guruhiga – *kirish cheklangan ma'lumotlar*, ya'ni davlat sirlari va boshqa sirlar. Bunday axborotga kirish qat'iy cheklanishi lozim va ruxsatsiz kirishga uringanlik javobgarlik keltirib chiqarishi belgilanishi lozim. Ikkinchi guruhga – *ommaviy kirish ruxsat etilgan axborotlarni* kiritishimiz mumkin. Bu kabi axborotlar ma'muriy organlar tomonidan tinimsiz ravishda uzatilib borilishi va omma bundan uzluksiz xabardor bo'lib borishi lozim bo'lgan axborotlarni o'z ichiga olishi kerak. Har qanday shaxs ushbu ma'lumotlarni hech qanday to'siqlarsiz olish imkonini yaratilishi shart. Bu kabi axborotlarga davlat organlari va mansabdor shaxslarning vakolatlari, ma'muriy hujjatlar, qaror, farmon va idoraviy hujjatlar, respublika hamda mahalliy budjet mablag'larining sarflanishi va boshqalarni qamrab olgan axborotlarni kiritishimiz mumkin. Uchinchi guruhga – faqat so'rov bo'yicha so'rovchiga kirishga ruxsat etiladigan axborotlar, ya'ni muayyan subyektgagina tegishli ma'lumotlarni kiritish lozim. Biz so'z yuritayotgan uchinchi guruh axborotlarni huquqshunos olim Gunin Dmitriy Igorevich "axborot siri" deb atashni taklif etadi. Bu haqida, "Axborot siri – faqat bitta shaxsga yoki qat'iy cheklangan odamlar doirasiga ma'lum bo'lgan ma'lumotlarning holati tushuniladi"²¹ deb yozadi. Bunday axborotlarni olishga, uni qayta ishlashga va foydalanishga faqat o'sha cheklangan doiragina haqli hisoblanadi. Bu guruh axborotlarga shaxsga doir ma'lumotlar, shaxsiy va jamoaviy sir, tadbirkorlik, biznes siri, bank siri va boshqalarni kiritishimiz mumkin. Bu kabi axborotlarga axborot egasining shaxsini tasdiqlash orqaligina kirish imkoniyatini yaratuvchi texnologiyalarni joriy etish lozim. Hozirgi kunda yurtimizda mavjud shunday tizimlar sifatida "one-id", "mobile-id" "ERI" hamda "ID-karta" tizimlarini misol keltirishimiz mumkin. Yuqorida keltirganimiz axborot guruhlaridan ikkinchi va uchinchi guruhga kiritilgan axborotlarni olishdagi muammolar va ularning yechimlarini ko'rib chiqamiz. Dastlab, qonunchilikdagi muammolarni davom ettirsak. Axborotni taqdim etishdagi

²¹ Гунин Д. И. Транспарентность и тайна информации: теоретико-правовой аспект //Библиотека МОО «Информация для всех» [Электронный ресурс]. – 2013. – Режим доступа: <http://www.ifap.ru/library/index.htm>. – 2008. – Т. 6.

muddatlardan tashqari, yana bir muammoldan biri axborotlarning guruhlanmaganidir. O‘zbekiston Respublikasining “Davlat sirlarini saqlash to‘g‘risi”dagi, “Bank siri to‘g‘risi”dagi, “Tijorat siri to‘g‘risi”dagi qonunlarida hamda boshqa qonun va qonunosti normativ hujjatlarda maxfiy tutilishi lozim bo‘lgan ma‘lumotlarga ta‘rif beriladi va ular himoya qilinishi belgilanadi. Lekin mamlakatimizda axborotlarni maxfiy yoki oshkor qilinishi mumkin bo‘lgan alohida guruhlariga ajratib ko‘rsatgan qonun hujjati mavjud emas. Bu bir jihatdan fuqarolarga qiyinchilik tug‘dirishi aniq. Har bir fuqaro davlat siri, tijorat siri, bank siri yoki shaxsga doir ma‘lumotlar nima ekanini bilishi uchun muayyan qonunlar mavjudligi va ular bilan tanishib chiqish zarurligini bilmaydi. Fuqarolar davlat organlari yoki tashkilotlariga muayyan axborotni so‘rab murojaat qilganida ularga bu axborot “davlat siri” boshqa hollarda “shaxsga doir” axborot ekani aytiladi. Shuning uchun ham axborotlarni ularni olish imkoniyatidan kelib chiqib aniq guruhlariga ajratuvchi alohida qonun hujjati yaratilishini taklif etamiz.

Keyingi asosiy muammoldan biri – fuqarolarning axborot olish huquqlari va erkinliklari buzilganligi uchun javobgarlikning aniq belgilanmagaligi hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasining “Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni 16-moddasiga ko‘ra ushbu qonunda belgilangan normalarni **buzganlikda aybdor deb topilgan shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo‘lishi belgilangan**. Lekin javobgarlikning fuqaroviy, ma‘muriy yoki jinoiy javobgarlik ekanligi ushbu qonun bilan aniq belgilanmagan. Boshqa qonun hujjatlarida ham (xususan, ma‘muriy hamda jinoiy javobgarlikni belgilovchi kodekslarimizda) axborot olish huquqi buzilishi bilan bog‘liq javobgarlik masalasi hal etilmagan. Ko‘plab xorijiy davlatlarda, jumladan, Hindiston Federativ Respublikasining 2005-yilgi “Axborot erkinligi to‘g‘risida”gi qonuniga binoan (V bob, 20-band) ma‘lumot olish uchun jo‘natilgan arizani qonunchilikda ko‘rsatilgan muddatda qabul qilishdan bosh tortganlik yoki ma‘lumotni taqdim etmaganlik yoki ma‘lumotni bila turib noto‘g‘ri, to‘liq bo‘lmagan holda berganlik yoki ma‘lumotni taqdim etishga har qanday tarzda to‘sqinlik qilganlik uchun ariza kelib tushgan kundan e‘tiboran ma‘lumotlar to‘liq taqdim etilgunga qadar har kuni ikki yuz ellik rupiya (₹250) miqdorida jarima hisoblanishi hamda jarima miqdori yigirma besh ming rupiyadan (₹25 000) oshmasligi kerakligi belgilangan²². Bu kabi qonunchilikda axborot olish huquqining buzilishiga nisbatan belgilangan to‘g‘ridan-to‘g‘ri javobgarlik masalasi davlat organi va tashkilotlarning mas‘ul xodimlarini axborot so‘rovlariga nisbatan jiddiyroq munosabatda bo‘lishga undaydi. Xuddi shu kabi milliy qonunchiligimizga ham fuqarolarning axborot olish huquqlarini amalga oshirishlariga har qanday to‘sqinlik qilgan hamda qonunda belgilangan muddatlarda qonun bilan cheklanmagan axborotni bermagan mansabdor shaxs yoki shunga mas‘ul bo‘lgan

²² THE RIGHT TO INFORMATION ACT, 2005 No. 22 of 2005 // MINISTRY OF LAW AND JUSTICE. Access mode: <https://rti.gov.in/rti-act.pdf>

xodimga nisbatan jarima jazosi yoxud shu singari huquqiy ta'sir chorasini qo'llashni kiritishimiz lozim.

Keyingi asosiy muammaolardan biri fuqarolarning axborot olish huquqlarini amalga oshirishi bilan bog'liq munosabatlarda fuqarolarga huquqiy yordam berishni, ularning axborot olish huquqlari mazmuni nimada iborat ekani, uning chegarasi qayergacha belgilangaligi, bu huquqni amalga oshirish usul va uslublari haqida aholi o'rtasida targ'ibot o'tkazish orqali fuqarolarning huquqiy ong va madaniyatini yuksaltiruvchi, axborot olish huquqi buzilganda da'vogar sifatida maydonga chiquvchi maxsus vakolatli organning mavjud emasligidir. Bu borada ham xorijiy davlatlar tajribasiga qaraydigan bo'lsak, Angliyada fuqarolarning davlat organlariga axborot so'rovi yuborish orqali muayyan hujjatlar, voqea va hodisalar haqida ma'lumot olish huquqini ta'minlovchi Axborot komissar organi joriy etilgan va bu lavozimda bir shaxs 15 yildan ortiq ishlashi mumkin emas. Bu organ butun mamlakat hududida fuqarolarning so'rovi bo'yicha axborot taqdim etilishini ta'minlaydi, bu borada ularga amaliy yordam ko'ratadi hamda davlat organlarini bu yo'nalishda baholab boradi. Fransiyada ham 1978-yil 17-iyuldagi "Ma'muriy hujjatlardan erkin foydalanish to'g'risida"gi 78-753-sonli qonunidan keyin CADA (Comissia d'Acces aux Documents Administratifs) deb ataladigan komissiya – mustaqil ma'muriy organ tashkil topdi. Agar ma'muriyat fuqarolarning so'rovi bo'yicha hujjatni taqdim etishni rad etsa, CADA fuqaro va ma'muriyat tomonlarini tinglashi va keyin o'z maslahatini berishi mumkin, lekin CADA ning maslahati majburiy xarakterga ega emas. Germaniyada ham Axborot erkinligi bo'yicha Federal Komissar lavozimi joriy etilgan. Uning roli federal institutlarning axborot amaliyotini nazorat qilish va ombudsman sifatida jamoatchilik vakillarining shikoyatlarini ko'rib chiqishdan iborat. Bundan tashqari, har bir shtatning o'z komissari mavjud. Ushbu komissar yevropaning boshqa davlatlaridan farqli o'laroq davlat hokimiyati va boshqaruvi organlariga katta ta'sir ko'rsata oladi. AQSh da esa axborot olish bo'yicha yuborilgan so'rovning natijalarini FOIA (Freedom Of Information Act) agentliklari kuzatib boradi. Chili davlatining bu boradagi yutug'i fuqarolarning ochiq axborotdan foydalanish huquqini kafolatlovchi, axborot olish huquqi bilan bog'liq qonunchilik ijrosini ta'minlash va fuqarolarning axborot olish bilan bog'liq huquqlari buzilganda jazo choralari qo'llash vakolatiga ega bo'lgan avtonom tashkilot – Oshkoralik kengashining tashkil etilgani deyishimiz mumkin²³. Meksika davlatida ham Ommaviy Axborotga kirish Federal Instituti (IFAI) mustaqil organi mavjud bo'lib, boshqa davlatlardagi shu kabi tashkilotlardan o'zining axborot olish huquqini ta'minlanishiga to'sqinlik qilgan davlat organi va mansabdorlariga moddiy, intizomiy va ma'muriy sanksiyalar qo'llash vakolati bilan ajralib turadi. Osiyo davlatlari ichida Yaponiyada ham fuqarolarning axborot olish huquqlarini amalga oshirilishini nazorat qiluvchi Ichki ishlar va Kommunikatsiyalar vazirligi tarkibida tashkil etilgan mustaqil organ – Tekshiruv kengashi mavjud, lekin uning ham chiqargan

²³ <http://www.diariooficial.cl/actualidad/20ulle/20285.html>

qarorlari xuddi Fransiyaning CADA komissiyasining xulosalari kabi majburiy xarakterga ega emas. Lekin ushbu kengash tarkibi mutlaqo professionallardan – advokatlar, akademiklar, sobiq sudyalari va boshqa mutaxassislardan iborat tarzda shakllantiriladi. Ular Bosh vazir tomonidan tayinlanadi va parlament tomonidan tasdiqlanadi.

Yuqorida sanab o‘tilgan tashkilotlar ham kamchilik va nuqsonlardan xoli emas. Masalan, Angliyada OpenDemocracy internet platformasining 2021-yil hisobotlariga ko‘ra, UaytHall (“WhiteHall” – Angliya hukumati va boshqa ko‘plab davlat organlari tushuniladi) 20 yildan buyon axborot so‘rovlariga javob bermay kelmoqda. The Guardian internet nashrining ma‘lumotlariga ko‘ra esa, Axborot komissari idorasining budjeti so‘nggi o‘n yil ichida 41 foizga kamaygani holda, ish yuklanmasi 46 foizga oshgan²⁴. Aynan shuning natijasi o‘laroq Axborot komissarining jamiyat hayotida o‘rni sezilmay qolmoqda. Bundan tashqari, bunga yana bir sabab huquqdagi bo‘shliqlar deya izoh beradi Elizabet Denham. Uning tashkiloti qonunlarning buzilishini tergov qilish uchun mas‘ul hisoblangan. Uning fikricha, xususiy firmalar qonundagi bo‘shliqdan foydalanib, ma‘lumot berishdan bosh tortgan holda jamoatchilik va ommaviy axborot vositalarini zulmatda qoldirishmoqda²⁵. Ya‘ni hozirda Angliyada davlat xizmatining 30% ini shartnoma asosida xususiy firmalar ko‘rsatmoqda. Axborot olish huquqini mustahkamlagan qonun qabul qilinganda shartnoma asosida davlat xizmatini ko‘rsatish tartibi mavjud emas edi, shuning uchun ham bunday xususiy sektorning axborot so‘roviga javob berishi shartligi qonunda belgilanmagan. Bunga qo‘shimch tarzda, Angliyada COVID-19 pandemiyasi davrida hukumat tashkilotlari va vazirliklar WhatsApp ijtimoiy tarmog‘i orqali masofaviy ishlashga o‘tgan. Bu tarmoqda hukumat a‘zolari endilikda avtomatik ravishda yo‘qolib qoladigan xabarlardan foydalanishga o‘tmoqda. Bunga qarshi advokatlar sud tekshiruvini o‘tkazishni talab qilmoqda. Chunki Angliyada hukumat a‘zolari o‘rtasidagi har qanday yozishmalar arxivlanishi lozimligi belgilangan. Yangi funksiya esa hozircha hukumatga o‘z kirdikorlarini berkitish imkonini bermoqda. Fransiya ham axborot olish huquqini ta‘minlashda muammolar bor. Bu muammo aynan yuqorida aytgan tashkilotimiz CADA bilan bog‘liq. Shu tashkilot vujudga kelganidan so‘ng axborot olish huquqini ta‘minlash mexanizmi birmuncha qiyinlashdi. Fuqarolar ma‘muriy organdan kerakli axborotni ololmasa, ma‘muriy sudlarga murojaat qilishi mumkin, faqat buning uchun ular, avval, CADA ga murojaat qilib, uning qarorini olishlari kerak. Aksincha bo‘lsa, ma‘muriy sudlar bunday ishlarni qabul qilmaydi. Yana bir muammo – Fransiya qonunlarida istisnolarning ko‘pligi. Fransuz jurnalisti va FOI targ‘ibotchisi Pol Moreyraning aytishicha, *"qonun juda ko‘p istisnolarga egaki, u mutlaqo samarasiz. Bu esa deyarli hamma narsani "maxfiy himoyalangan" deb tasniflash imkonini beradi va hujjatda shaxs haqida gap ketganda, unga*

²⁴ UK editors call on ministers to protect freedom of information // Article. URL: <https://www.theguardian.com/politics/2021/feb/08/uk-editors-call-on-ministers-to-protect-freedom-of-information>

²⁵ Buyuk Britaniya hukumati uchun ishlaydigan xususiy firmalar "FOI qoidalariga bo‘ysunishi kerak" // Maqola. URL: <https://www.theguardian.com/politics/2021/nov/25/private-firms-working-for-uk-government-should-be-subject-to-foi-rules>

kirish imkonsiz bo'lib qoladi"²⁶. CADA sobiq rahbari Mishel Puybasset esa yuqoridagi muammolarga yana organlar Fransiyaning Ma'muriy hujjatlar haqidagi akti ularga tegishli ekanligini tan olmasligini hamda so'rovga javob berishda haddan tashqari kechikishini (organlarning 80 foizi belgilangan muddatda javob bermaydi) qo'shimcha qiladi.

Ushbu muammolarni tahlil qiladigan bo'lsak, asosiy muammo Angliyada maxsus vakolatli organning (Axborot komissari) yetarli darajada moliyaviy ta'minlanmagani va qonunchilikdagi bo'shliqlar bo'lsa, Fransiyada esa qonunchilikdagi istisno va noaniqliklar hamda maxsus vakolatli organning (CADA) chiqargan qarorlari despozitiv xarakterga ega ekanligi bo'lib chiqmoqda. Shularni hisobga olgan holda, Respublikamizda fuqarolarning axborot olish huquqlarini ta'minlovchi maxsus vakolatli organ – Axborot ombudsmani lavozimini joriy qilishimiz o'rinli bo'ladi. Ushbu organning asosiy vazifalari: fuqarolarning axborot olish huquqlarini amalga oshirishi bilan bog'liq munosabatlarda fuqarolarga huquqiy yordam berish, ularning axborot olish huquqlari mazmuni nimada iborat ekani, uning chegarasi qayergacha belgilangaligi, bu huquqni amalga oshirish usul va uslublari haqida aholi o'rtasida targ'ibot o'tkazish orqali fuqarolarning huquqiy ong va madaniyatini yuksaltirishga ko'maklashish, axborot olish huquqi buzilganda da'vogar sifatida fuqarolarning axborot olish huquqlarini tiklash va boshqalar bo'lishi lozim. Angliya va Fransiyadagi shu kabi tashkilotlardagi kamchiliklarga yo'l qo'ymaslik uchun ushbu tashkilot moliyaviy jihatdan yuqori darajada ta'minlanishi lozim. Bundan tashqari, u Prezident huzurida tashkil etilsa, uning maqomi va boshqa organlarga nisbatan ta'siri sezilarli darajada yuqori bo'ladi. Bundan tashqari, Angliya hukumatining masofadan ishlashga o'tgani va WhatsApp ijtimoiy tarmog'ida avtomatik yo'q bo'luvchi xabarlardan foydalanishi ham fuqarolarda ularga nisbatan shubha uyg'otadi. Buning uchun hukumat a'zolariga xususiy bo'lmagan maxsus masofadan ishlash imkonini beruvchi tarmoqlar yaratishimiz ham zamon talabidir.

Yuqoridagilarni umumlashtirib, fuqarolarning axborot olish huquqini ta'minlashning quyidagi bosqichlardan iborat mexanizmini taklif qilamiz:


- 1) Fuqarolarning axborot olishga bo'lgan ehtiyojlarining vujudga kelishi;
- 2) Axborot olish jarayonida vujudga kelgan ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan normalarni ishlab chiqish;
- 3) Axborot ishlab chiqaruvchi, uni tarqatuvchi, axborotni oluvchi hamda boshqa axborot olish jarayoni subyektlari o'rtasidagi munosabatlar;
- 4) Axborot olish huquqining buzilishi (faqatgina buzilgan hollarda);
- 5) Axborot olish huquqini buzgan subyektlarga javobgarlikning belgilanishi (faqatgina buzilgan hollarda);

²⁶ French. International focus // Article. URL: <https://www.ucl.ac.uk/constitution-unit/research/research-archive/foi-archive/international-focus/france>

6) Axborot olish huquqining Axborot ombudsmani tomonidan tiklanishi (faqatgina buzilgan hollarda).

Manashu oltita bosqichda fuqarolarning axborot olish huquqi amalga oshadi. Buni quyidagi chizmada ham ko‘rishimiz mumkin (1-rasm).

1-rasm.



Shuni ta’kidlash lozimki, axborot olish huquqining rivojlanishi fuqarolar va davlat organlari o‘rtasidagi konstruktiv hamkorlikni ta’minlaydi. Axborotga bo‘lgan fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlarini ta’minlashning zamonaviy usuli sifatida, avvalo, davlat vazirlik, qo‘mita, idoralari va boshqa ma’muriy organlar o‘zlaridagi jamiyat manfaatlariga daxldor bo‘lgan ma’lumotlarni elektron tizimga kiritishi lozim. Bu, albatta, katta mablag‘ va uzoq vaqt talab etadigan jarayon. Lekin bu fuqarolarning axborot olish huquqlarini nisbatan tezroq ta’minlanishiga zamin yaratadi va jamiyatda hukumat va davlat organlariga nisbatan ishonchsizlik kayfiyatining shakllanishining oldini oladi. Har bir fuqaro, albatta, og‘ir mehnatlari evaziga vujudga kelgan respublika va mahalliy budjet mablag‘larining sarflanishini erkin kuzatish huquqiga ega, bu ham davlat mansabdorlarining faoliyatidagi shaffoflikni ta’minlaydi. Zero, insonlar faqat adolat istaydi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

[1] O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 09.02.2021-y., 03/21/671/0093-son. URL: <https://lex.uz/docs/-20596>

[2] Гунин Д. И. Транспарентность и тайна информации: теоретико-правовой аспект //Библиотека МОО «Информация для всех» [Электронный ресурс].–2013.–Режим доступа: <http://www.ifar.ru/library/index.htm>. – 2008. – Т. 6.

[3] THE RIGHT TO INFORMATION ACT, 2005 No. 22 of 2005 // MINISTRY OF LAW AND JUSTICE. Access mode: <https://rti.gov.in/rti-act.pdf>

[4] UK editors call on ministers to protect freedom of information // Article. URL: <https://www.theguardian.com/politics/2021/feb/08/uk-editors-call-on-ministers-to-protect-freedom-of-information>

[5] Buyuk Britaniya hukumati uchun ishlaydigan xususiy firmalar "FOI qoidalariga bo'ysunishi kerak" // Maqola. URL: <https://www.theguardian.com/politics/2021/nov/25/private-firms-working-for-uk-government-should-be-subject-to-foi-rules>

[6] French. International focus // Article. URL: <https://www.ucl.ac.uk/constitution-unit/research/research-archive/foi-archive/international-focus/france>